



MADAMINBEK (MUHAMMAD AMINBEK AHMADBEK O'G'LII) FOJEASI

G'ulomov Husanboy

Farg'ona davlat universiteti

Tarix fakulteti 3-bosqich talabasi

To'rayev Ravshanbek

Farg'ona davlat universiteti

Tarix fakulteti 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: XX asr milliy istiqlolchilik harakatining ahamiyati, Madaminbekning qo'rleshilik faoliyati, o'lka mustaqilligi uchun kurashgan qo'rleshilar, madaminbekning hayotiy va harbiy faoliyati, Madaminbek jasorati va fojeasi, milliy tariximizda Madaminbekning tutgan o'rni va roli.

Kalit So'Zlar: bosmachi, Madaminbek, Shermuhammadbek faoliyati, Xolxo'ja Eshon xiyonati, rus manbalari, tarixiy xilma-xillik.

KIRISH

Vatanimiz tarixiy ildizlari ko'p mingyllikkha borib qataladi. Bu tarixiy davr mobaynida yashab o'tgan barcha ajdodlarimiz o'z davrida, hayotlik paytidayoq, nomlarini tarix zarvaraqlariga muhrlashga ulgurishgan. Ba'zilari "qon" bilan, ba'zilari o'z "jon" bilan. Shunday shaxslaridan biri Madaminbekdir. Sovet tarixchilari tomonidan bu shaxs o'tgan asrda "Bosmachi" nomi bilan qoralangan. Xo'sh tarixga yuzlansak "Bosmachi" atamasi qachon va qay tariqa paydo bo'lgan? 1919-yil o'rtalarigacha "Bosmachi" degan so'z qo'llanilmagan. Sho'ro idoralarining maxsus yig'ilishlarida harakatni qoralash uchun shu so'z taklif etiladi. Sho'ro axriv manbaalarida bu davrgacha "постанцы", "моджахеды" degan so'zlar ishlatiladi.[1] "Bosmachi" iborasini birinchi bo'lib bolshovoy mafkurachilar qo'lladilar. "Жизн национальности" (Moskva, 1920-yil iyun) jurnalida "Bosmachilik fronti" maqolasi e'lon qilindi. Bu iborani 1921-yili 4-aprelda mazkur maqola muallifi Farg'ona qo'shnulari qo'mondoni D.E.Konovalov ishlatdi. P.Kushnev esa "bosmachi" so'zini qaroqchi ma'nosida qo'lladi. [2] O'sha davr nuqtai nazaridan kelib chiqib aytadigan bo'lsak, bu kabi "bosmachi"lardan biri Madaminbek edi.

ASOSIY QISM

Madaminbek (Muhammad Aminbek) Ahmadbek o'g'li 1892-yilda Marg'ilonning So'qchilik kasabasida qashshoqlanib qolgan bekzodalar xonodonida tug'ilgan. Marg'ilonda Madaminbekning avlod-ajdodlarining "Bekulug'" deb yuritishardi. Bu bejiz emas. Asli hozirgi Toshloq rayoning Sadda qishloq sho'rosi hududida joylashgan So'xchilik qishlog'ida 1892-yili tavallud topgan Madaminbek el-yurtga taniqli yigit edi. Madaminbek beklik unvonini qo'rleshilik faoliyatini boshlagnidan so'ng olgan emas. So'qchilik qishlog'idagi keksalar va Madaminbekning turmush o'rtog'i Saodat ayaningxotirlashicha, u nasl-nasbi jihatidan ham bek bo'lgan. Ruslar Farg'onani bosib






olganlaridan so'ng, Madaminbek ajdodlari o'z mavqelarini yo'qotadilar. Uning otasi Ahmadbek qoshiq, cho'mich va boshqa ro'zg'or buyumlarini ishlab chiqaradigan kichik ustaxonaning egasi edi. Oz-moz savdogarchilik bilan shug'llanar edi. Madaminbekning bir akasi va ikki opasi bo'lgan. [3] Madaminbek yoshligida otasiga yordam berib, yog'ochdan turli buyumlar yasab sotib yurdi, keyinchalik bozorda hammollik, do'kondorlik, karvonlarda sarbonlik qildi. Savodi tuzuk bo'lganligi uchun savdogarlar, zakunchilar, amaldorlar doiralariga ham kirib bordi.[4: 15] Madaminbek Birinchi jahon urushi arafasida chor Rossiyasi hukmronligiga qarshi bosh ko'taradi.

Uning qo'l ostida jang qilayotgan To'ychi, Qoraboy, Xolxo'ja va yana ularga o'xshash bir necha qo'rboshilar qanday qilib bo'lsada, Madaminbekning o'rniga o'zları o'tirishni, amiral muslimin bayrog'ini o'zları tutishniorzu qilar edilar va bu yo'lda yashirin yo'l tutganlar. 1919 yil 22 oktyabrdagi Pomirning Ireshtom (Ergashtom) ovulida Madaminbek rahbarligida Farg'ona Muvaqqat hukumati tuzildi[5: 18]. Madaminbek hukumat raisi va bosh qo'mondon qilib tayinlandi. 1920 yil fevralida sovet qo'shinlari Madaminbek, Shermuhammadbek qo'shinga qarshi o'nlab samolyot, bronepoezd, katta miqdordagi to'p pulemyotlar bilan hujumga o'tdi. Harbiy tashabbus qo'ldan ketganligini his etgan Madaminbek o'z qo'shini, yigitlarini saqlab qolish maqsadida yarash muzokaralarini taklif etdi, hamda u bilan diviziya boshlig'i Veryovkin-Raxal'bskiy o'rtasida 1920-yil 6-martda Skobelev shahrida yarash bitimi imzolandi. Taslim bo'lanylarni avf etish haqidagi sovet hukumatining qarori chiqqan bo'lsada, bolsheviklar tomonidan o'ldirilgan Madaminbek o'limining ertasi kuniyoq boshqa istiqlolchilarni ham shafqatsiz qirish boshlandi. [6: 38] O'sha davrda yurt o'zining eng katta fidoyi farzandidan ayrildi. Madaminbekning o'limi hozirgi paytgacha sirligicha qolib ketmoqda. Bunga doir bir nechta tarixiy faktlar mavjud. Lekin haligacha bir to'xtamga kelingani yo'q. Bu sirli fojea haqida turli xil manbaalar mavjud.

Muhammadaminbek Shermuhammadbekning ko'rsatmasi bilan Xolxo'ja tomonidan qatl etilgan va uning boshi nayza uchiga o'rnatilib, ibrat va sazoyi qabilida Xolxo'ja tomonidan olib yurilgan. Xulosa yakdil bo'lsada, Muhammadaminbek qatl etilgan joy, vaqt va holat haqida katta tafovut bor. Qizil komandirlardan biri M.Polikovskiy esa o'zining "Madaminbekning tugatilishi" asarida quyidagicha hikoya qiladi:

"Madaminbek Ko'rshermatga sulk masalasida uchrashish uchun bir necha marta taklif yuboradi. Nihoyat, Ko'rshermat uni G'orbuvoga taklif qiladi. Madaminbek o'zining polk komissari Suxov va yigirma to'rt yigit hamrohligida G'orbuvoga yo'l oladi. Madaminbek Vodilga yetib kelganda Ko'rshermat uni o'rab oldi, jang paytida Madaminbek boshidan o'q yeb o'ldi. Uning boshi Xolxo'jaga sovg'a qilinadi". Madaminbekning taqdiri masalasida tarixiy manbaalarda bir biriga qarama qarshi malumotlar beriladi. Jumladan sovetlar davrida yozilgan adabiyotlarda Madaminbekni "sotqin" sifatida Shermuhammadbekning buyrug'i bilan qo'rboshi Xolxo'ja tomonidan otib tashlanganligi takidlanadi. Xuddi shu fikrni "O'zbekiston tarixi" (1917-1993-yillar) mualliflari ham ilgari suradilar. Ingiliz tarixchisi Glenda Frezer o'zining "Bosmachilar" asarida: "Madaminbek Shermuhammadbek oldiga tinchlik missiyasini jo'natadi. Shermuhammadbek Madaminni ayg'oqchi sifatida 14-may kuni otib tashlaydi", deb






yozadi. 1957-yilda nashr etilgan “Farg’ona vodiysida sovet hokimiyati uchun bo’lgan janglarda” deb nomlangan to’plamda Usmon Alievning “Mening xotiralarim” deb atalgan esdaliklari ham bor. Unda shunday parchani uchratamiz: “... To’ychi Qo’rboshi bilan muzokaralarni Paramonov, Chekmaryov va Oxunovlar olib bordilar. Har ikki tomon bir to’xtamga keldilar. Paramonov, Chekmaryov va Oxunov To’ychi Qo’rboshini M.V.Frunze o’z esheloni bilan turgan Serovo stantsiyasiga taklif etdilar. To’ychi rozi bo’ldi, biroq bir oz keyinroq borishini bildirdi. To’ychi o’zining So’xda turgan yigitlariga “Rishtonga kelib turinglar, men Serovoga, o’rtoq M.Frunze oldiga ketyabman”, degan mazmunda xat yozadi. Xatni jo’natgach, sulh tuzish uchun yo’l oladi. Serovo yo’lidagi Zohidon qishlog’iga yetganida unga Madaminbekning boshini keltirib beradilar. Ma’lum bo’lishicha, sulh shartnomasi tuzilgandan so’ng M.V.Frunze tomonidan musulmon armiyasi qo’mondoni etib tayinlangan Madaminbek Qo’qonga kelgan paytda bir vaqtlar Xolxo’janing ukasini o’ldirgan (U.Aliev biroz adashtirib yuborgan.

Boshqa bir necha manbaga ko’ra To’ychi qo’rboshining ukasini o’ldirgan) Yorbek degan kishini Qo’qon qamoqxonasidan ozod qiladi va shu tariqa ular bir-biriga dushman bo’lib qolgan. Sovetlar bilan yarashtirish haqida muzokaralar olib borish uchun kelgan Madaminbekni Ko’rshermat hiyla bilan qo’lga tushurib, uning eski dushmani Xolxo’jaga topshiradi. Xolxo’ja, shu tariqa, ukasining qasdini olgan bo’lib, Madaminbekni o’ldiradi”. Xolxo’ja Eshon shunday mashhur shaxs bo’lgani bilan, uning 1917 yilgacha bo’lgan hayoti haqida hech qanday ma’lumot yo’q. Manbalarda, uning O’shlik ekanligi, Sharqiy Farg’onada faoliyat ko’rsatganligi, ayrim janglari tafsiloti yoziladi, xolos. Shuningdek, manbalarda Xolxo’ja Eshon Madaminbek fojiasining bosh qahramoni sifatida qalamga olinadi. [5: 21] Turk adibi va jurnalist Ali Bodomchining “1917—1934 yillarda Turkistonda milliy istiqlol harakati va Anvar Posho” asarining I jildi shartli ravishda “Qo’rboshilar” deb nomlangan. Bu asarda yozuvchi Shermuhammadbek, Nurmuhhammadbek va chet elga qochib o’tishga muvaffaq bo’lgan qo’rboshilarning yozma va og’zaki xotiralaridan unumli foydalangan. Ali Bodomchi Madaminbek fojiasida nafaqat Shermuhammadbek balki, Xolxo’ja Eshonning ham qo’li bo’lishi mumkinligi haqidagi gumonlarni butunlay rad etadi. Bu masalaga u shunday yondashadi: “Qorovul mavzei atrofida bo’lib o’tgan janglar paytida... Bolsheviklar eng avvalo Xo’jag’ir darasi tomonidan hujumga o’tdi. Ularning soni 1000 dan oshiq bo’lib, Madaminbek ham o’z yaqinlari bilan mana shularning ichida edi. Bu kuchlarning deyarli hammasi tatar va o’zbek qizil askarlari edi. Xo’jag’ir darasi qo’rboshilar rejasiga ko’ra, Xolxo’ja Eshonning yigitlari tomonidan ushlab turilardi. Shuning uchun ular 1000 kishilik dushmanni qilich yalong’ochlab kutib oldilar. Xolxo’ja Eshon bolshevik kuchlari ustiga 9-aprel kuni ertalab yashin tezligida hujum uyuştirib, ilk bosqichda besh yuztasini asir oldi. Madaminbek ham shu asirlar orasida edi. Xolxo’ja Eshon 500 asirni Lutfulloh Maxsum va Soyib Qori boshchiligidagi qarorgohga yubordi.

Madaminbek — sobiq qo’rboshilar qo’mondoni endi qo’rboshilarning qo’lida asir bo’lib qoldi. Madaminbek bilan tortishuv boshlagan qo’riqchi qo’rboshilar Soyib Qori va Lutfulloh Maxsum Madaminbekka oldin o’q otib, keyin bo’g’ib o’ldirdilar. Turkistonlik yozuvchi va olimlar Madaminbekni Xolxo’ja Eshon o’ldirGANI yoki o’ldirtirib





yuborganini yozganlar. Tatqiqotchi olim Mansurxo'ja Xo'jayevning so'rab-surishtirish va tadqiqotlariga ko'ra, Madaminbekni Xolxo'ja o'ldirmagan ham, o'ldirtirmagan ham. Chunki Madaminbek o'ldirilgan paytda Xolxo'ja urush jabhasida bo'lган. Qotillar, yuqorida yozilganidek, Soyib Qori va Lutfulloh Maxsumlardir. Bular ikkalasi ham bir qancha vaqt g'oyib bo'lishgan. Buxoroga qochib borib, Madaminbekni o'ldirganliklarini tan olishgan. Ba'zi turkistonliklar esa Madaminbekni Shermuhammadbek o'ldirganini aytadilar. Bunday da'vo — iddao butunlay ehtimoldan holi. Qorovul jangidan keyingi maslahat majlisidayoq Shermuhammadbek Xolxo'jaga sabr qanoatli bo'lishni, biror yomon kor-holga yo'l qo'ymaslikni uqtirgan.

Bu mavzudagi eng to'g'ri fikr Madaminbekni bolsheviklar tomonidan o'ldirilganidir. Chunki o'ldirganlar aniq, ammo o'ldirtirganlar noma'lum. Shermuhammadbek o'z xotiralarida bu mavzuga keng o'rinn berib, shunday deydi: "Madaminbekning o'lganini men kech eshitdim. Karboboga qaytib kelgan paytimizda bildim. Urush chog'ida uning yuzini ko'rmaganman ham. Chunki biz jiddiy o'lish-qolish jangi ichida edik. Xolxo'ja Madaminbekni asir olgan paytda uning yigitlari Soyib Qori va Lutfulloh Maxsumga topshirgandi. Bu ikkisi Madaminbekni o'ldirib, Buxoroga qochib ketgan. Madaminbekni men yoki Xolxo'ja o'ldirgan degan iddao ruslar tomonidan bizga qarshi tuhmat targ'iboti edi. Xolxo'ja Madaminbekka kek saqlardi, ikki yil oldin oralari yaxshi bo'limgani holda Madaminbek Xolxo'jani Marg'ilonga chaqirib, qurollarini olib qo'ygandi. Buni hamma bilardi. Men shaxsan Madaminbekning ruslar bilan kelishganiga g'azablanganimga qaramay, ilgari katta ishlarni bajargan, oydin fikrli bir qo'mondon ekanligini qadrlar edim. O'limi menga ko'p ta'sir qildi. Koshki mening qo'llimga tushgan bo'lganda, men uni eski xizmatlariga binoan Afg'onistonga jo'natardim. Qotil aniq va bu dahshatli hodisada ruslarning qo'li bor. Bolsheviklar bu o'lim hodisasini bizning ustimizga to'nkashdi. Mening xulosalarim shunday. Soyib Qori va Lutfulloh Maxsum Madaminbekni o'ldirganlaridan keyin bu yerdan g'oyib bo'lishdi. Urush to'paloni ichida askar yigitlarning ko'pi Madaminbekning o'limidan xabarsiz qoldi. Germaniyada istiqomat qilgan marhum vatandoshimiz Doktor Boymirza Hayit o'zining "Bosmachi yoxud 1917—1934-yillarda Turkistondagi milliy kurash" kitobida Muhammadaminbek fojiasiga Shermuhammadbekning daxli yo'qligini ta'kidlagan holda, Xolxo'ja Eshon haqida ochiq yozmaydi, ishora qilib o'tadi, xolos: "... Madamin va Xolxo'ja o'rtasidagi mojarolar 1919-yildayoq yuzaga kelgan edi. Xolxo'ja Madamin yigitlari orasida qo'rishi bo'lib yurgan kezlari Madamin uni axloqiy buzuqlikda ayblab, 4 oyga qamoq jazosiga hukm qilgan edi. Xolxo'ja Madamindan nafratlanar, shu bois 1919-yil oxirida uning yigitlaridan ajralib, Shermuhammadga kelib qo'shilgan edi. Madaminning jang maydonida paydo bo'lishi oliymaqom imkoniyat edi. Madamin va Suchev (Suxov – M.X.) 1920-yil 14-mayda o'ldirilganlar." Boymirza Hayit yana shularni yozib o'tadi: "... Madamin Shermuhammad huzuriga tinchlik muzokaralari olib borish uchun kelayotganida Xolxo'ja yigitlari tomonidan qo'lga olinadi va qatl qilinadi. Soyib qori va Lutfulla Maxsum Madaminni o'ldirganlaridan keyin Buxoroga qochib ketadilar." Muhammad Aminbekni Shermuhammadbek hech qachon o'ldirishi mumkin emas edi, — deydilar Shermuhammadbek va Nurmuhhammadbek o'g'illari Davronbek va Anvarbeklar.





Madaminbekka hurmat ramzi sifatida Shermuhammadbek nabirasiga Madaminbek deb ism qo'ygan. Madaminbekning jiyani Nurmuhhammadbekning umr yo'ldoshi edi, otamlar doimo Madaminbek amakimlarni milliy qahramon sifatida tilga olishar edi... Darxaqiqat Shermuhammadbek va Madaminbek o'rtasidagi bunday aloqlardan so'ng ular o'rtasida dushmanlik kayfiyati bo'lganligi haqiqatdan yiroq. Muallif Mansurxo'ja Xo'jayev va Pyotr Yevdokimovich Bronislavskiy o'rtasidagi suhbatdan ushbu tafsilotlar namoyon bo'ladi. U iste'fodagi general, harbiy prokuror bo'lib, uzoq yillar O'zbekistonda xizmat qilgan, hozirgi paytda Moskvada istiqomat qilib, yoz mavsumida dala hovliga ko'chib chiqqan ekan. Yigirmanchi yilda Pyotr Yevdokimovich Bronislavskiyi Farg'ona fronti maxsus bo'limiga tergovchi qilib yuborishdi. Rishton, Serovo, So'x oralig'ida harakat qilgan To'ychi va Qoravoy qo'rleshilar bo'lar edi. Ular bir necha marta qizil qo'mondonlik bilan sulh tuzishgan, lekin ko'p o'tmay yana bosmachilikka o'tib ketishgan. Nihoyat, to'rtinchi marta bosmachilar tomoniga o'tib ketayotganligi ma'lum bo'lib, hibsga olingan. Tergov bir necha oy davom etadi. Ularning aybini bo'yniga qo'yib, ishni sudga oshirish payti kelganda To'ychi bir vaqtlar sho'rolarga katta xizmat ko'rsatganman.

Maxsus bo'lim ko'rsatmasi bilan Madaminbekni yo'q qilish ishida qatnashganman... Sinchiliklab o'rganadigan bo'lsak, Rus manbaalarining barchasida Xolxo'ja Eshon va Shermuhammadbek tomonidan Madaminbek o'ldirilgani aytilgan. Lekin mahalliy manbaalarga asoslanadigan bo'lsa bu ruslar tomonidan uyshtirilgan qotillik sifatida ko'rsatiladi. Boshqa manbaalarda esa Xolxo'ja Eshon asosiy gumondor sifatida ko'rsatiladi. Sho'rolar davrida yozilgan "Sovet Turkistoni uchun" degan kitobda bunday bitiklar bor: "Madaminbek (1889-1920-y.) - Farg'ona vodiysidagi Bosmachilikning yirik boshliqlaridan biri Savdogarning o'g'li. Bir ayolni o'ldirganligi uchun katorgaga jo'natilgan. 1917-yil oxirlarida u yerdan qaytgach, Eski Marg'ilon militsiyasiga ishga kiradi, otryad boshlig'i bo'ladi. 1918-yil yozida u sovet hokimiyatiga xiyonat qilib, otryadi bilan bosmachilarga qo'shiladi. 1920-yil martida bosmachi otryadi bilan asirga tushadi. Ko'rshermat bilan muzokaralar olib borishga ketganda o'ldiriladi. Sovet qo'mondonligi tomonidan muzokaralar o'tkazish uchun qo'rleshilar orasiga yuborilgan Madaminbek Shermuhammadbekning roziliqi bilan Xolxo'ja Eshon tomonidan 1920-yil 14-mayda qirg'izlarning Qorovul qishlog'i atrofida xiyonatkorona o'ldirildi. [3: 28] Yarash bitimi hech qanday ahamiyatga ega bo'limgani uchun boshqa beklar Madaminbekni xoinlikda qoralashdi. Xolxo'ja qo'rushi Uchqo'rg'on tegarasida Madaminbek bilan jangga kirishib, uni qatl etadi. Shu jumladan, Ibrohim Yorqin "Turkistonning buyuk mujohidi Shermuhammadbek" maqolasi, "Turk kulturi" jurnali, 95-son (1970-yil may oyi), 496 bet; Tohir Chig'atoy "Turkiston mujohidi Shermuhammadbekni yo'qotdik", maqolasi ("Davlat" majmuasi, 52-son (1970-yil, 30-mart), 6—7 betlar kabi asarlarda yuqorida fikrni tasdiqlab yozganlar. Boymirza Hayit "Turkiston Rusiya ila Chin orasinda" nomli asarining 284-betidagi 33 raqamli izohida shunday yozgan: "Madaminbek 1920-yil 9-aprelda bosmachilar tomonidan otilgan" deb turib, o'sha asarning 288 betida: "Madaminbek Xolxo'janing kuchlari tomonidan 1920-yil 14-mayda qatl qilindi", deydi. Adib Ibrohim Karimning kitobida keltirilishcha,





Xolxo'ja Eshon tomonidan Madaminbek o'ldirilib, kallasini xo'rjinga solib, Nazar degan yigitdan uni To'ychi va Qoravoy qo'rboshilarga jo'natib yuboradi. Ruslarga sotilgan bu qo'rboshilar esa Madaminbekning kallasini ruslarga topshirishadi. Ruslar esa Madaminbek boshi solingan xo'rjinga 500 ta o'q solib Xolxo'ja Eshonga qaytarib yuborishadi. Madaminbekning boshini qirg'izlar Xolxo'ja Eshondan sotib olishga muvaffaq bo'ladilar. Qirg'izlarning Madaminbekka ixlosi baland edi. Uning kallasini tanasiga tikib, izzat-ikrom bilan Takatayloqdagi Shig'ay qishlog'i yaqiniga Isfayromsoy qirg'og'iga dafn etishadi. (Hozirgi Qirg'iziston Respublikasi.) [1: 45] Ko'rileganidek ma'lumotlar ko'p lekin yakdil xulosa yo'q. Chunki o'sha davrda bizning tariximiz "g'oliblar" tomonidan yozilgan. Bu malumotlar esa ba'zi bir mahalliy manbaalar ahamiyatini pasaytirmoqda. Yuqordan ko'rindiki, Madaminbek ruslar buyrug'iga asosan mahalliy qo'rboshilar tomonidan xoinlarcha o'ldirilgan.

XULOSA

Xulosa o'rnida O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A. Karimovning Madaminbek haqida fikrlariga to'xtalsak: "Madaminbek... ozodlik,adolat uchun kurashgan... Ushbu harakatning Madaminbek kabi nainki o'zining balki el-yurt ornomusi va sha'nini o'ylab, o'z maslakdoshlari bilan shu kurashga otlangan bilimli, irodali namoyondalari... bo'lganligini unutmaslik lozim." Barcha davrning o'ziga xos xususiyati tarixni g'oliblar yozishi va mag'lublar qoralanishidir. Mamlakatimiz mustaqilligi sharofati bilan ushbu tarixiy shaxsning haqqoniy tarixini yoritish imkoniy paydo bo'ldi.

IQTIBOSLAR:

1. Bosmachilik: Haqiqat va uydurma, Sharq yulduzi, 1991, 3-son.
2. Ibardinov A. Qo'rboshi Madaminbek, Yozuvchi. 1993.
3. Karim.I, Madaminbek, II nashr, T.:Sharq, 1999. 130 b.
4. Rajabov Q. O'zbekiston adabiyoti va sanati gazetasi, 2002, 21-son.
5. Xo'jaev M. Shermuhammadbek qo'rboshi, Sharq. T.;, 2008.
6. G'ofurov B. Qo'rboshi madaminbekni kim o'ldirgan? 2020, 3-son
7. Красная звезда, Москва, 1928, 1-сон.

